INSONNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISHDA PROKURATURA TIZIMINING O`RNI

Najmiddinova Sarvara
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: Bugungi kundagi rivojlangan davlatlarda ma'lum bir qonunchilik tizimi va qoidalari bo`lgani singari, O`zbekiston Respublikasi ham o`z qonunchilik tizimiga va qoidalariga egadir. Mamlakatimizda qonunchilik tizimining muhofazasini ta'minlash uchun aynan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashkil etilgan bo`lib, ulardan biri O`zbekiston Respublikasi Prokuratura va prokuratura organlaridir. Mazkur maqolada O`zbekiston Respublikasida Prokuratura va uning organlarining huquqni muhofaza qilish jarayonida amalga oshirayotgan amaliy ishlari, ular tomonidan qo`llanilayotgan ishlarning fuqarolar hayotidagi ahamiyati, Prokuratura tizimida hanuzgacha ta'minlanishi biroz qiyin bo`lgan holatlar, ularni ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak vazifalar va islohotlar ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** inson,huquq,erkinlik, qonun, tuzilmaviy, organ, bo`lima, noqonuniy, ustuvorlik, huquqbuzarlik.

Kirish.

Ushbu maqolaning maqsadi aynan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o`rni, ahamiyati va shu bilan birga ularning o`z sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlarning ularning faoliyatiga ta'sirini ochib berishdan iborat. Mamlakatimizning asosiy qonuni bo`lgan Konstitutsiyamizda nazarda tutilganidek, "O`zbekiston – boshqaruv shaklining respublika shakliga ega bo`lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, va dunyoviy davlat. Davlatning " O`zbekiston Respublikasi " va " O`zbekiston " degan nomalari bir ma'noni anglatadi"[1].

Konstitutsiyamizning ushbu moddasining "huquqiy" va "demokratik" davlat degan so`zlariga alohida e'tibor berishimiz kerak bo`ladi. Negaki, aynan bu ikki so`z mamlakatdagi boshqaruv tizimi qay tartibda tashkil etilganligini aniqlab beruvchi dastlabki belgilardir, ya'ni biz qachon davlatni huquqiy davlat deyishimiz mumkin, qachonki davlat o`z boshqaruv apparatida huquqning ustuvorligi uning quyi qatlamidan tortib yuqori qatlamigacha ta'minlansa va fuqarolar huquqqa o`z ijobiy fikrlarini bildirsagina biz shu turdagi davlatni huquqiy davlatishimiz mumkin. Buning ahamiyatli jihati shundaki, huquqiy davlatda barcha insonlar o`zlariga taqdim etilgan huquqlardan erkin va hech qanday to`sqinliklarsiz foydalana olishini ifodalaydi. Demokratik davlatda ham bu turdagi jihatlar aks ettirilgan bo`lib, demokratik davlatning eng tahsinga sazovor tomoni ham shundaki, fuqarolar o`zlari kundalik hayotda duch kelgan muammolarini hal qilshda va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari mumkinligi ta'kidlab o`tilgan. Shuningdek, ular o`zlarining buzilgan huquqlarini tiklab berilishini so`rab vakolatli davlat organlariga murojaat qilishi ham aynan demokratik va huquqiy turdagi davlatlarda bu ularning konstitutsiyaviy huquqlari deb e'tirof etiladi. Biroq, bugungi rivojlangan davrda avvalgiga nisbatan insonlarning huquqlari va erkinliklari bo`lgan daxl etish soat sayin o`smoqda bu holatlarning oldini olish va bu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida mamlakatda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashkil etilgan va ularning bosh maqsadi jamiyatda qonun ustuvorligini, huquqiy-tatibotni ta'minlashdir.

Qonunchiligimizga muvofiq, O`zbekiston Respblikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini, asosan, quyidagilartashkil qiladi:

- "Prokuratura va prokuratura organlari;

[1]O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-y. –5-b

- Adliya vazirligi va adliya organlari;
- Ichki ishlar vazirligi va ichki ishlar organlari;
- Davlat xavfsizlik xizmati;
- Davlat soliq qo`mitasi va bojxona organlari;
- Davlat bojxona qo`mitasi va bojxona organlari;”[2].

Mazkur organlarning maqsadi aynan insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash bilan birgalikda qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Ushbu sohada O`zbekiston Respublikasi Prokuratura va uning organlari alohida ahamiyatga ega va aynan bu organ bugungi kunda o`ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda avvalo, murojaat qilgan har kim bilan shaxsan muloqot qilib, ularni qiynab kelayotgan muammolariga berilgan muddatlarda aniq va qanoatlantirilgan javob berishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish jarayonida yetarlicha tuzilmaviy bo`linmalarini ishga solishi, ya’ni ba’zi bir chekka hududda murojaatchilar o`zlarini qiynab kelayotgan muammolarini ko`rib chiqishi va hal qilib berishi uchun tuzilmaviy bo`limalarga to`sqinliklarsiz murojaat qilishlarini ta’minlash ularning o`zlarining vakolatidan kelib chiqib bajaradigan vazifalarini amalga oshirishdagi amaliy ishlaridir. Aytish joizki, bu amaliy ishlar murojaat qilib kelgan aholining nafaqat vaqtini tejashga, ortiqcha xarajtlarning oldini olishga va muddatbozlikning keskin tushishiga imkon yaratdi. Bundan tashqari, prokuratura organlarining shu kabi vazifalari 2022-yilning 2-sentabrda qabul qilingan “ Prokuratura to`g`risidagi” O`zbekiston Respublikasi qonuniga o`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritish haqidaga qonunning 7-moddasida keltirib o`tilgan “ Prokuratura organlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko`rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko`radilar”[3].

Shuningdek, boshqa yuridik adabiyotlarda ham O`zbekiston Respublikasi Prokuraturasi va uning organlarining amaliy ishlari keltirib o`tilgan ‘‘ Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Prokuror noqonuniy xatti-harakatlar sodir etilganligi to`g`risida yetarlicha ma’lumot va dalillarga ega bo`lsa noqonuniy sodir etgan shaxsga nisbatan ogohlantirish ma’lum qiladi va qonunni buzganligi haqida javobgar ekanligini ham bildirib o`tadi”[4].

Bu ogohlantirish orqali fuqarolar o`z xatti-harakatlari qonunga zid ekanligini anglaydi va buni qayta sodir etmasligim kerak degan xulosaga keladi, prokuratura organlarining bunday ishlashlari tufayli jamiyatda qonunbuzarlilarning va jinoyatlarning soni asta-sekin kamayishi mumkin va bu mamlakat xavfsizligini ta’minlashdagi birinchi o`rinda turuvchi maqsadlardandir. Shuni ham ta’kidlab o`tishimiz kerakki, har bir sohaning hal qilib bo`lmayotgan tomonlari ham bor va shu holatlar prokuratura tizimida ham mavjud. Misol uchun, shaffoflikning yo`qligi – ayblov to`g`risidagi qarorlarni qabul qilishda prokurorlar ko`pincha keng ixtiyoriylikka ega va bu qarorlar qanday qabul qilinishida shaffoflik etishmasligi mumkin. Bu adolat va javobgarlik haqida tashvishlanishga olib kelishi mumkin. Xilma-xillikning yo`qligi – prokuratura tizimida irq, etnik kelib chiqish, jins va kelib chiqish nuqtai nazaridan xilma-xillik bo`lmasligi mumkin. Bu turli jamolar ishtirokidagi ishlarni tushunish va ko`rib chiqishga ta’sir qilishi mumkin. Qarama-qarshilik madaniyati – Prokuratura tizimining qarama-qarshilik xarakteri ba’zan adolat izlashdan ko`ra, g`alaba qozongan ishlarni birinchi o`ringa qo`yishilishi, insonlar taqdirini o`yinchoq qilinishi va buning natijasida begunoh jabrdiydalar sonining haddan ziyod oshib ketishiga sabab bo`ladi. Prokuratura organlarining noto`g`ri xatti-harakati – oqlovchi dalillarni yashirish, sudda no`o`rin bayonotlar berish yoki axloqsiz xatti-harakatlar qilish kabi

[2]Mualliflar guruhi. O`zbekiston davlati va huquq asoslari 8-sinf uchun. Darslik. – Toshkent: Huquq va Jamiyat, 2019-y. – 134 - b

[3]https://lex.uz/docs/-106197?ONDATE=02.09.2022

[4] Saidov A.X. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. Darslik. – Toshkent: Sharq, 2019. -166-b

prokurorning huquqbuzarlik holatlari jinoiy sudlov tizimining yaxlitligiga putur yetkazishi mumkin. Ushbu muammolarni hal etishda quyidagi takliflarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

Shaffoflikning yo`qligi muammosini yechish uchun Prokuratura organlari xodimlarining zarur va favqulodda holatlardan tashqari holatlardan tashqari, ixtiyorida bo`lgan vakolatlarni nazorat qilinishi va ba'zi hollarda cheklab qo`yilishi kerak. Xilma-xillikning yo`qligi muammosini bartaraf etish uchun turli millat fuqarolari bilan jinoyat izini topishda va tergovda hamkorlik qilish agar davlat siri bilan bog`liq holatlar bundan mustasnodir. Bu usulni qo`llashning yomon tarafi shundaki, boshqa millat vakili aynan qonunchiligimizda qo`llanilayotgan amaliyotlar voqif bo`lishi va uni noto`g`ri talqin etib ommaga bayon qilishi mumkin. Biroq, bu yechim bilan tergov jarayonida gapirishni xohlamagan insonlar aynan o`z millat vakiliga bo`lgan vaziyatni to`sqinliklarsiz aytib berishi mumkinligi ham ehtimoldan yiroq emas. Qarama-qarshilik madaniyatini yo`q qilish uchun har bir bajarilgan ish jamoatchilik muhokamasiga qo`yilishi kerak va bunda xalqning fikri inobatga olinishi kerak va bu aynan ishlarni adolatli ko`rib chiqilishiga imkon beradi. Faqat bu yevhim davlat siri va fuqarolarning siri bilan bog`liq bo`lganda qo`llanmasligi kerak. Prokuratura xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlarini to`xtatishda ularga nisbatan jazo choralarini qo`llash va muddatidan ilgari lavozimidan ozod etish bilan birgalikda, ularga nisbatan axloq ta'sir choralarini qo`llash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda avvalo, adolat va adolat tamoyillarini ta'minlashda prokuratura tizimi hal qiluvchi rol o`ynaydi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish jarayonida Prokuratura va uning organlari xodimlarining zarur huquqiy ko`nikma va bilimlarini o`zlarining vakolatiga tegishli bo`lgan vazifalarni amalga oshirishda yetarli yoki yo`qligini tekshirish vaaholi bilan ishlashda ularning tuzilmaviy strukturalarni shakllantirish va rivojlantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-y. – 112 b
2. Mualliflar guruhi. O`zbekiston davlati va huquq asoslari 8-sinf uchun. Darslik. – Toshkent: Huquq va Jamiyat, 2019-y. – 192 b
3. Saidov A.X. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. Darslik. – Toshkent: Sharq, 2019. -200 b
4. https://lex.uz/docs/-106197?ONDATE=02.09.2022